

Urganch shahrida dam olish maskanlarini tashkil etishda yangicha yondashuvlar va tabiiy-iqlim xususiyatlari

Maqsud Bekturdiyevich Setmamatov

maqsud1971@list.ru

Atabek Shuxratovich Xodjayazov

otabek22111988@gmail.com

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning cho'l hududida rekreatsion obyektlarni joylashtirish uchun hududni to'g'ri tanlashga ta'sir etuvchi landshaft va iqlim xususiyatlari va dam olish maskanlarini tashkil etishda shaharsozlik talablari ko'rib chiqilgan. Rekreatsion maskanlarni shaharda joylashtirishni hal etish uchun yondashuvlarni inobatga olgan holda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: rekreatsiya, to'qay, qum, cho'l, Avesto, esplanada, mozaika

New approaches and natural and climatic features in the organization of recreation areas in the city of Urgench

Maqsud Bekturdiyevich Setmamatov

maqsud1971@list.ru

Atabek Shuxratovich Xodjayazov

otabek22111988@gmail.com

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

Abstract: This article examines the landscape and climatic features affecting the correct choice of the territory for the placement of recreational objects in the desert region of Uzbekistan, and the requirements for urban planning in the organization of recreation areas. Recommendations have been developed taking into account approaches to solving the placement of recreational areas in the city.

Keywords: recreation, weaving, sand, desert, Avesto, Esplanade, mosaic

Aholi dam olish hududi, rekreatsiya - bu alohida funksional hudud hisoblanadi. Uning unsurlari, elementlari, shaharda aholi yashash joylarida, sanoat hududlarida va ulardan tashqarida qisqa muddatli (dam olish kunlari) va uzoq muddatli (ta'til paytida) (pansionatlar, o'quvchilar oromgohlari, bog'dorchilik xo'jaliklari) va boshqa dam olish joylari tashkil etiladi.

Respublika hududida bir qancha landshaft turlari mavjud bo'lib, ular quruq va nam subtropiklardan tortib doimiy muzliklar va qorliklardan iboratdir.

Aholi yashash hududlarining guruhli tuzilishida shahar tashqarisidagi dam olish maskanlarini bir qancha qisqa muddatli va uzoq muddatli dam olish hududlari yig'indisi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Aholi yashash hududlari guruhli tizimining bir darajadagi tashkil etuvchilari - aholi joylashuvi, transport va tabiiy landshaft shahar tashqarisidagi dam olish hududlarining tashkiliy tuzilmasi bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Ular kompleks ravishda rekreatsion aloqalarning rivojlanish va taqsimlanish jarayoni mexanizmiga, ya'ni aholi yashash joylarining guruhli tizimidagi shahar tashqarisidagi dam olish hududlari rejaviy tarkibiga asos bo'ladi[1].

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy g'arbida joylashgan. Yer maydoni 6,1 ming kv km. ni tashkil etadi va O'zbekiston hududining 1,4 foizini egallaydi. Xorazm viloyati doimiy aholisining soni 2022 yil 1 yanvar holatiga 1924,2 ming kishini tashkil qildi. Viloyat geografik o'rniga ko'ra 40° - 31° va 42° shimoliy kengliklar 60° - 62° sharqiy uzunliklar oralig'ida joylashgan. Hududi shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa 280 km, Urganch shahri joylashgan kenglikda g'arbdan sharqqa 80 km atrofida cho'zilgan. Viloyatning eng shimoliy chekka nuqtasi Gurlan tumani Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuronbobo to'qayiga to'g'ri keladi. Janubiy chekka nuqtasi esa Tupraqqal'adan bir muncha janubda joylashgan.

Xorazm viloyati yer tuzilishi jihatidan ikki qismga. Dengiz sathidan 100-110 m baland bo'lgan katta shimoliy qismga va dengiz sathidan 120-150 metrgacha baland bo'lgan chekka janubiy qismga bo'lish mumkin.

Viloyat iqlimi keskin kontinental bo'lib, hududining qumlar bilan o'ralganligi sababli yoz kunlari harorat $+43^{\circ}$ + 45° C darajaga ko'tariladi. Xorazm viloyati ma'muriy-hududiy tuzilishi bo'yicha 11 ta tuman hamda Urganch va Xiva shaharlariga ajratiladi. Viloyatda 519 ta mahalla mavjud.

Urganch shahri tashkil topgan sana 1939 yil, Hududi (yer maydoni) 3447.37 ga, (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi.

Har bir o'lkani joylashgan hududiga qarab o'ziga xos iqlim omillari mavjud va u landshaft yechimlari bo'yicha iqlimiy regionga nisbatan tabiat va suv zahirasi bilan bog'liq bo'lgan omillari mavjud. Buni Xorazm iqlimi uchun quyidagicha izohlash mumkin.

Tabiiy-iqlimiy omillar. Shaharsozlik masalalarini hal etishda loyihalash jarayonining barcha bosqichlarida O'zbekiston hududlarining landshaft - iqlimiy rayonlashtirilishiga mos ravishda tabiiy muhitning regional, xarakterini hisobga olish lozim. O'zbekiston hududi 3 ta landshaft - iqlimiy regionga bo'lingan bo'lib har biri o'ziga xos xususiyatga ega :

Region II - cho'llar, kam o'zlashtirilgan, suv ta'minoti yomon hududlar bo'lib, sug'oriladigan dehqonchilikka qulay emas. Faqat tuproqqa agrotexnik ishlov beribgina bu hududlarni o'zlashtirish mumkin. Hududda aholi kam bo'lib, tarqoq aholi hududlarida joylashgan. Ular cho'l bilan o'ralgan. Kommunikatsion aloqalar tiklangan. Iqlim quruq va issiq, 120 kundan ortiq noqulay issiq havo oqimi hukmronlik qiladi. Shamol tezligi 3 m/sek dan ortiqroq. Qum va chang bo'ronlari 3-5 kun/oy bo'lib turadi. Sun'iy landshaftni tashkil etish, shamol yo'lini to'sish, tabiiy landshaftni faol qayta tashkil etish orqali aholi uchun qulay yashash muhitini yaratish mumkin. Hududda sug'orish imkoniyatlarini yetarli emasligi, asosan, rejaviy yechimni shakllantirishda va tashqi ta'sirdan hududni himoya qilishda alohida yondashuvni talab qiladi[1].

Xorazm iqlim sharoiti boshqa hududlarga nisbatan o'zining iqlimi va Orol dengiziga yaqinligi uchun havosining sho'rlanganligi bilan yer unumdorlik rentabelligi bir xil bo'lmagan holatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Masalan, qumli hududlarda rekreatsion hududlarni tashkil qilishda yerdagi rentabellik darajasi xohlagan o'simliklarni o'stirishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Sho'rlangan yerlarda yashovchi aholi uchun rekreatsion hududlarni tashkil qilishda ularga alohida yondashuv talab qilinadi. Chunki bunday yerlarda o'sadigan daraxt turlari soni juda kam va sayqallangan, ya'ni shakl berilgan manzara kashf etishi uchun ko'plagan yillar talab qiladi. Undan tashqari, suvga uzoqligi tomchilatib, yomg'irlatib suvg'orishning imkoni mavjud bo'lmagan taqdirda sho'rlanish ushbu sug'orish tizimidan ustunlik qilib suv tarkibidagi sho'rlanishni oshirishi evaziga daraxtlarni boshida shu muhitga ko'nikib o'sib ketgunicha qiyinchiliklar tug'diradi.

Urganch shahrida mavjud rekreatsion hududlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Urganch shahridagi "Al-Xorazmiy" shaharchasi Al Xorazmiy maydoni;
- Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi majmuasi;
- Urganch shahridagi "Yoshlar ko'li" dam olish maskani;
- Urganch shahridagi Olimpiya sport o'yingohi;
- Urganch shahridagi "Avesto" bog' majmuasi;
- Avesto bog' majmuasi;

- Urganch shahridagi Shovot kanali bo'yidagi rekreatsiya hududi;
- Urganch shahridagi "Yoshlik" sport majmuasi rekreatsiya hududi;

Respublikamizning Xorazm viloyati ham seysmikligi 8 ball bo'lgan hududlarda joylashgan. Bino va inshootlar qurilishida seysmik talablarni inobatga olish juda zurrurdir. Xorazm iqlimi rekreatsiya hududlariga ehtiyoj yilning qish mavsumidan tashqari, barcha fasllarida ehtiyoj yuqoriligini inobatga olib, bunday dam olish hududlarini ko'paytirish bo'yicha quyidagicha loyihaviy takliflarni tavsiya etamiz:

1. Urganch shahridan o'tuvchi Shovot kanali har ikkala sohilidan kelajak 50 yillik reja asosida 3 qavatli rekreatsion hududga ega bo'lgan majmuaviy binolar qurish.

2. Shahardagi ko'kalamzorlashtirilgan ochiq maydonlarni rekreatsiya hududi sifatida foydalanishga qaratilgan aniq rejalar qilish va maydonlarni boshqa maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Xorazm iqlim sharoitida yozda issiq ob-havoda harorat ko'tarilsa, uning namligi kamayadi. Qishda havo eng yuqori sovuq harorati -20 C gacha boradi. Yozda esa, ayniqsa, havo qiziganda, eng qulay ob-havo ertalab va kechqurun soat 17-00 dan keyin bo'ladi. Shunday ekan kuzatishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yog'inlarning kamligi va shamollarning shimoliy-sharqdan sekin esishi bu ushbu hududdagi Tuyamo'yin suv ombori mavjudligi bilan bog'liqdir[1]. (2-rasm).


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazmda shamollarning tezligi kamligi va juda kam holatlarda kuzatilishini inobatga olsak, aholini suv bo'yidagi joylarda dam olish, ya'ni rekreatsiya hududlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan ushbu kanal bo'ylari qirg'oqlarini rekreatsiya hududlari uchun ajratishni rejalashtirish va investrlarni jalb qilish, yoki tadbirkorlarni jalb qilish evaziga shakllantirishni rejalashtirishimiz lozim.

Xorij tajribasi Ispaniyaning Barselona shahridagi Guel parki misolida keltirish mumkin. Ushbu parkdagi bitta majmuaga e'tiborimizni qaratamiz. Zinadan tepaga ko'tarilib, siz keng yuqori esplanada maydoni joylashgan Yuz ustunlar zaliga borishingiz mumkin. Dastlabki rejaga ko'ra, bu zalni markaziy bozor sifatida ishlatish rejalashtirilgan edi (hozir u yerda konsertlar o'tkazilmoqda). Uning baland gumbazlari Antoni Gaudi yordamchilari tomonidan yasalgan mozaik abajurlar bilan bezatilgan. Zalning tepasida bog'ning bosh maydoni, yoki dunyodagi eng uzun (100 m dan ortiq) skameyka bilan o'ralgan, rang-barang mozaikalar bilan qoplangan San'at terassa joylashgan[2]. (3-rasm).

Xorijiy tadqiqotlar tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, aholi uchun imkoniyat mavjud bo'lgan suv bo'ylarida rekreatsion hududlarni shakllantirishda quyidagi omillar inobatga olingan:

- Suv bo'ylarida rekreatsiya hududlarini tashkil qilish bilan kelajak 100 yilda aholi sonining oshishi natijasida rekreatsion hududlarga bo'lgan ehtiyoj oshishi

mumkin. Bu yuqoriga o'sish taklifi samarali bo'lib, Shovot kanali bo'yida bugungi kunda amalga oshirish imkoni mavjud bo'lgan yerlarga aniq rejalarini tasdiqlab amalga oshirishni taqozo etadi.




2-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududidagi iqlim haritasi.

- Shovot kanali uzra boshqa tumanlar bilan bog'lanish bo'yicha kemalar qatnovini yo'lga qo'yish va boshqa tumanlarda ham qirg'oq bo'ylarida rekreatsion hududlardan foydalanish imkoniga ega bo'lish.

- Landshaft arxitekturasidan to'g'ri foydalanib, yashil o'simliklarning Xorazm iqlim sharoitida o'sadigan navlariga alohida e'tibor berib, yoki ushbu o'simliklarni boshqa manzarali daraxtlarga payvandlash yo'llarini qilish lozim bo'ladi. Buning uchun Obodonlashtirish tashkilotlarida daraxtlar yetishtirish tajribasiga ega bo'lgan qo'shimcha shtatlar tashkil qilish doimiy nazorat grafisini qilish lozimdir.

- Rekreatsion hududlarni tashkil qilishda Xorazmning tabiiy-antropogen muhitining bo'laklari sifatida ularning ishlab chiqilgan yagona tasnifiga asoslanib, turli darajadagi yopiq va ochiq tabiiy va antropogen elementlarning o'zaro ta'siri xarakterini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.



3-rasm. Ispaniyaning Barselona shahridagi Guel parki esplanada maydoni.

- Xorazm viloyatining poytaxti bo'lgan Urganch shahrining kelajak yillik istiqbolli rejasi bilan aholi farovonligini inobatga olgan holda barcha sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda rekreatsiya hududlarini ham to'g'ri tashkil qilish rejalarini aniq belgilab olish.

Ushbu ilmiy tadqiqotda ishlab chiqilgan metodologiya qoidalaridan kelib chiqib, Xorazm viloyati cho'l hududida joylashganini inobatga olib, shaharsozlik holatlarida shaharsozlikda suv bo'ylarida qirg'oqqacha bo'lgan me'yorlarni inobatga olgan holda arxitektura obyektlarini joylashtirish tajribasi umumlashtiriladi. Bu bilan sinovdan o'tkazilgan asosiy natijalari va xulosalaridan kelib chiqib, ijobiy natijalarni qo'shni iqlim sharoiti o'xshash bo'lgan Respublikaning boshqa cho'l hududlari shaharlarida ham foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov O.Z. O'zbekistonda shahar atrofi rekreatsiya hududlarini tashkil etish masalalari (Toshkent dengizi misolida) magistrlik dissertatsiyasi. TAQI. T.2019.
2. https://otdix.net/barselona/interesting-places/guell-park#google_vignette